

## BADIY TARJIMANING LINGVOKOGNITIV TAHLILI

Qahhorova Shahnoza To'raqulovna

NavDPI o'qituvchi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarjimaga nisbatan keng ko'lamli fanlararo lingvokognitiv yondashuv asosida tillararo va madaniyatlararo muloqot sharoitida muqobililikka erishish, tarjima nazariyasi olami hamda zamonaviy tarjimashunoslik haqida so`z yuritiladi

**KALIT SO`ZLAR:** tarjimaviy bilingvism, etnomadaniy jamoa, transkripsiya va transliteratsiya, globalizatsiya jarayonlari

### KIRISH

Badiiy tarjimaning lingvokognitiv jihatni, zamonaviy tadqiqotlarda tarjima tillararo va madaniyatlararo aloqaning bir shakli sifatida tan olinganligi natijasida, muqobililikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Ulardan biri bo'lgan lisoniy aloqa madaniyatlararo sharoitda amalga oshirilib, ushbu aloqa vaqtida ma'lum tillararo va madaniyatlararo kontaminatsiya - tizimlar qorishuvi yuzaga keladi. N. Garbovskiy tarjima borasida J. Munenning fikrini tasdiqlaydi: "tarjima lisoniy aloqa va bilingvizmdan dalolat beradi, tarjimaviy bilingvism esa dinamik bilingvism sifatida ta'riflanib, unda nafaqat ikkita til, balki ikkita madaniyat ham aloqaga kirishadi".

Tilni lingvokognitiv nuqtai nazardan yoritishda tilshunoslar, shu tilni ona tili yoki chet tili bilan qiyoslash orqali o'rganish lozim degan tezisga tayanib, tadqiqot birligi sifatida muayyan chegaralar, ya'ni voqelik, muayyan etnomadaniy jamoagagina xolisona tegishli (kiyim-kechak, qurilmalar, taomlar, urf-odat va shu kabilarning nomlari), jihatlarini atovchi birliklar, ya'ni lakunalar tanlanadi. Tillar munosabati jarayonida madaniyatlar bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi va o'z navbatida interferensiya xodisasi vujudga keladi. N. Ivanov interferensiyaning ikki ko'rinishini ajratib ko'rsatadi: ixtiyoriy va ixtiyorsiz. Birinchisi zaruriy o'zlashtirma vaziyatida yuzaga chiqib, biror bir fakt yoki hodisa qabul qiluvchi tizimda mustahkam o'rashadi hamda o'zga tizim manbalari keyingi tizim lakunasini to'ldirish uchun ishlataladi. Interferensiyaning ikkinchi turi, ya'ni soxta interferensiya tasodifiy nusxa olishdan iborat bo'lib, fakt yoki hodisa tilning tarixiy tajribasida o'rasha olmaydi. Bu turdag'i interferensiya chet tilini yaxshi bilmaslik, yoki so'zma-so'z tarjimadan darak beradi va tabiiyki, xabarning mazmuni yo'qoladi. Ixtiyoriy interferensiya tillararo va madaniyatlararo munosabatning yaqqol namoyondasidir. Tillararo aloqa vaziyati, tor ma'noda, ikki yoki undan ortiq lisoniy tizimlar va tuzilmalarning, keng ma'noda tillarning madaniy o'zaro ta'sirlanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Olimlar madaniyatlar o'zaro ta'sirlanishini "tillar aloqasi orqali

madaniyatlar aloqasini paydo qiluvchi hodisa – tarjimani asos qilib” tadqiq qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. Tarjimaning madaniyatlararo anglashinilishida ma’lum muqobililik ning o‘ziga xos madaniyatlararo maqomini tushunib yetish hamda uning muhim rol o‘ynashini inkor qilmaslik kerak. Tillararo va madaniyatlararo muloqot sharoitida muqobililikka erishish masalasi tarjimaga nisbatan keng ko‘lamli fanlararo lingvokognitiv yondashuv asosida hal etiladi. Tarjimaga bo‘lgan lingvokognitiv yondashuv tarjima usullari yig‘indisining tor doiradagi an’anaviy sharhidan keng tarixiy sharhga o‘tishga imkon beradi va u tillararo munosabat kontekstida yechim topadi. Tarjima, shubhasiz, madaniyatlararo muloqotning muhim vositasi hisoblanadi va busiz turli hamjamiyatlar va mamlakatlar o‘rtasidagi aloqa amalga oshishi qiyin. Tarjimada xabar bir tildan ikkinchi tilga transformatsiya qilinadi va bunda ekvivalentlik masalasi muhim rol o‘ynaydi. Tarjima nazariyasi olamida mashhur bo‘lgan olimlardan biri A. Ivanov bu borada quydagicha fikr bildiradi: “Agar tarjima nazariyasining eng muhim masalasi ajratib ko‘rsatiladigan bo‘lsa, uni, shubhasiz, ekvivalentlik deb atasa bo‘ladi. U tarjima muammosining markaziy o‘rnini egallaydi”. Shunday qilib, tarjimaning sifati va uning lingvokognitiv jihatni, tarjima bo‘lish yoki bo‘lmaslik darajasi aynan ekvivalentlik va ekvivalentsizlik darajasi bilan aniqlanadi, deyish mumkin va aynan ekvivalentlik tarjima matnining boshqa tilga tarjima qila olinganlik ko‘rsatkichini ifodalaydi. Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik nazariy tilshunoslik, mantiq va falsafa kesishuvida hal etiladi, chunki u til ontologiyasi va falsafaning kognitiv aspektlari, shuningdek, mantiqning tushunchaviy sohalarini qamrab oladi. Har bir shaxs va har bir individ o‘z tili barobarida o‘zining betakror va o‘ziga xos olam manzarasiga ega bo‘lib, bu olam manzarasi shu tilda so‘zlashayotganlarning dunyoqarashi imkoniyatlarini ochib bera oladi. Mana shu fikr, keyingi yillarda til va tafakkurni bir-biriga tenglashtiruvchi Sepir Uorfning “lingvistik nisbiylik tamoyili” nomli nazariyasi doirasida rivojlantirildi. Ushbu konsepsiya ko‘ra, tilning o‘ziga xosliklari ushbu tilda so‘zlashuvchi insonlarning o‘ziga xos fikrlash tarzini aniqlab beradi va natijada bir tilning tafakkur mahsuli sifatidagi nutq boshqa til belgilari orqali bir xilda yetkazib berilmaydi. Zamonaviy globalizatsiya jarayonlari, turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar, turli tillar vakillarining o‘zaro munosabatlari tillar va madaniyatlarning o‘zaro bir-biridan ta’sirlanishi uchun sharoitlar yaratadi. Hozirgi kunda, hattoki o‘z tilimiz muhitida so‘zlashib turib ham, biz boshqa tillardan o‘zlashib kelgan atamalar (pandemiya, kovid, onlayn kabilar)dan foydalanmay gapira olmaymiz. Bundan tashqari, o‘zlashtirma atamalarning ma’lum kategoriyasi umumiyl leksikaning dinamik qatlamini tashkil qiladi. Bu turdagи lisoniy hodisalar tarjimaning ratsional mos tarzda amalga oshirilishiga ko‘mak beradi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, “tarjima qilib bo‘lmaslik nazariyasini tirik tarjima amaliyoti, malakali tarjimonlarning ko‘zga ko‘ringan ishlari inkor qildi va buning aksini isbotlash yopiq eshikka kirishga urinish

bilan barobardir”. V. Vinogradov tarjimaning leksik muammolariga nisbatan “fon axborot” terminini ishlatalishni ma’qul ko‘radi va bu atamani “faqatgina ma’lum millatga xos bo‘lgan va uning vakillari orqali o‘zlashtirilib, ushbu milliy hamjamiyatning tilida ham aks etgan ijtimoiy-madaniy ma’lumot” deb tavsiflaydi.

Bu holatning misolini biz mashhur amerikalik yozuvchi va tarjimon Mark Risning “O’tkan kunlar” romanini tarjima qilish tajribasida ko‘rishimiz mumkin. Tarjimon ushbu asarni tarjima qilishga 15 yil sarflaganligi, ushbu vaqt mobaynida A. Qodiriyning yozuv uslubi va o‘zbek madaniyatini tushunib yetish uchun hatto O‘rxun-Enasoy yozuvlarini va Chig‘atoy lahchasini o‘rganganligi, xalq orasiga kirib juma nomozlariga borganligini o‘z intervyusida ta’kidlab, quyidagi fikrni bildiradi: “badiiy tarjimon bo‘lishni istagan kishi kamida yozuvchi bo‘lishi, asarning muhiti va lingvokognitiv jihatini anglab yetishi lozim”. Tarjimon hatto o‘zbeklarni boshqa kitobxonlar ham o‘zidek his qila olishliklari uchun ba’zi sof o‘zbek madaniyatiga xos so‘z va iboralarni o‘zidek saqlaganligi, masalan, o‘zbek “non”ini tarjimada ham “non” shaklida qoldirib “bread” shaklida tarjima qilmaganligining sababini bu so‘zning lingvokognitiv sathi inglizcha variantidan bir muncha o‘ziga xoslik kasb etishini aytib o‘tadi. O‘zbeklar orasida 15 yil mobaynida yashab o‘zbek madaniyatini yetarli tarzda o‘zlashtirgan tarjimon ingliz tilida mos muqobili bo‘la turib, ba’zi o‘zbekcha so‘zlarni transkripsiya va transliteratsiya usulida ifodalaydiki, bu bilan asarni o‘qiyotgan ingliz kitobxoni ham o‘zbekona madaniyatni his qilib turishini nazarda tutadi.

## **XULOSA**

Demak, tarjima jarayonida madaniyatlararo kontaminatsiya - tizimlar qorishuvi yuzaga kelar ekan unda nafaqat ikkita til, balki ikkita madaniyat ham aloqaga kirishishini hisobga olib, tarjimada muqobililikka erishish uchun madaniyatlararo anglashishga yetishish asosiy rol o‘ynashini inkor qilolmas ekanmiz. Tillararo va madaniyatlararo muloqot sharoitida muqobililikka erishish masalasi tarjimaga nisbatan keng ko‘lamli fanlararo lingvokognitiv yondashuv asosida hal etiladi hamda tarjimada adekvatlilikka erisholmaslikning sababi nafaqat alohida tillardagi lingvistik farqlar balki, kommunikantlar milliy ongingin ham bir xil emasligi bilan izohlanadi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Yusupov O.Ya. Ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik dubletlarning funksional-semantik va lingvomadaniy tadqiqi. Fil. fan. bo‘yicha fal. dokt. dissep. Samarqand, 2020. – 225 b.
2. Safarov Sh.S. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. Monografiya. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2019. – 300 b.

3. Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Ped. fan. dok. (DSc) diss. – T.: 2018. – 242 b.
4. Qodiriy A. O'tgan kunlar. – T.: Ilm-ziyo-zakovat. 2019. – 432 b.
5. Reese M.E. Bygone Days: O'tkan kunlar. Qodiriy A. Translation. Nashville TN, 2018. – 495 p

